



AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TIBBIY PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH DARAJALARI

Xayitova Shahnoza Daniyarovna,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1676>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 18

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА

Pedagogik madaniyat, akmeologik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, motivatsion-qiyamat component, kognitiv-aksiologik component konativ-faoliyat component, refleksiv-shaxsiy component, professional-ijodiy rivojlanish

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatning shakllanish darajalari tadqiq etilgan. Maqola pedagogik madaniyatning mazmuni, tarkibiy qismlari va shakllanish darajalari – yuqori, o'rta va past darajalarni aniqlashga qaratilgan. Pedagogik madaniyatning motivatsion-qiyamat, kognitiv-aksiologik, konativ-faoliyat va refleksiv-shaxsiy komponentlari batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayonida akmeologik yondashuvning samaradorligi va talabalarning professional-ijodiy o'sishiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida pedagogik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, akmeologik yondashuvning talabalarda mustaqil fikrlash, refleksiv faoliyat, kommunikativ kompetentlik va kasbiy mas'uliyatni shakllantirishdagi o'rni ochib berildi. Maqolada pedagogik madaniyatni rivojlantirishning mezon va ko'rsatkichlari aniqlanib, bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash imkoniyatlari ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari tibbiy ta'lim jarayonida pedagogik madaniyatni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish hamda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy jihatdan ahamiyatlidir.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 may 2026

Approved: 21 may 2026

Volume: 18-B

Paper number: 18

KEYWORDS

Pedagogical culture, acmeological approach, professional training, motivational-value component, cognitive-axiological component, conative-activity component, reflexive-personal component, professional-creative development

ANNOTATION

This article studies the levels of formation of pedagogical culture in future medical educators based on the acmeological approach. The article is aimed at identifying the content, components and levels of formation of pedagogical culture - high, medium and low levels. The motivational-value, cognitive-axiological, conative-activity and reflexive-personal components of pedagogical culture are analyzed in detail. At the same time, the effectiveness of the acmeological approach in the process of forming pedagogical culture and its impact on the professional and creative growth of students are highlighted. During the study, the theoretical and methodological foundations, pedagogical conditions and practical possibilities of developing pedagogical culture in the process of professional training of future medical educators were analyzed. The role of the acmeological approach in the formation of independent thinking, reflexive activity, communicative competence and professional responsibility in students was also revealed. The article identifies the criteria and indicators of the development of pedagogical culture and shows the possibilities of assessing the level of preparation of future medical educators for professional activity. The results of the study are of significant scientific and practical importance in developing innovative mechanisms for the development of pedagogical culture in the process of medical education and improving the professional competence of future specialists.

Kirish. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimida yuqori malakali va pedagogik madaniyatga ega tibbiy kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak tibbiy pedagoglarning pedagogik madaniyatini shakllantirish, ularning professional kompetensiyasi va bemorlar bilan samarali muloqotini ta'minlash borasida akmeologik yondashuvning qo'llanilishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir. Shu bilan birga, akmeologik yondashuv talabalarning kasbiy o'sishi, ijodiy fikrlash qobiliyati va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tibbiyot ta'limi tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimi nafaqat yuqori kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega, balki yuksak pedagogik madaniyat, kommunikativ kompetentlik va insonparvarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Shu jihatdan bo'lajak tibbiy pedagoglarning pedagogik madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki talaba va bemor bilan samarali muloqot o'rnatuvchi, kasbiy qadriyatlarini singdiruvchi hamda shaxsiy namuna ko'rsatuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik madaniyat tibbiy pedagogning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, u pedagogik bilimlar, kasbiy etika, kommunikativ qobiliyat, refleksiv yondashuv va ijodiy fikrlashning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Ayniqsa, bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish orqali ularda bemorlar bilan empatik munosabat o'rnatish, ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish hamda kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyati kengayadi.

Bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassis tayyorlash ustuvor vazifalardan biri

sifatida qaralmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydigan zamonaviy metodologik yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Ana shunday yondashuvlardan biri akmeologik yondashuv bo'lib, u shaxsning professional yetuklikka erishish mexanizmlari, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini o'rganadi. Akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy motivatsiyasi, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, refleksiv tafakkuri va pedagogik faoliyatga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tibbiyot ta'limi tizimida pedagogik madaniyatni shakllantirish talabalarning nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, ma'naviy-axloqiy qarashlari va kasbiy kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki zamonaviy tibbiyot amaliyotida vrach va pedagog faoliyati o'zaro integratsiyalashgan bo'lib, ular inson salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda yosh avlodni tibbiy madaniyat ruhida tarbiyalash kabi vazifalarni ham bajaradi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va akmeologiya fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo shaxsning kasbiy yetuklikka erishishi, pedagogik kompetentligining rivojlanishi va ijodiy faoliyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ushbu masalaning nazariy asoslarini yoritishda pedagogik madaniyat, kasbiy kompetentlik hamda akmeologik yondashuvga oid ilmiy manbalar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik madaniyat tushunchasi falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Tadqiqotchilar pedagogik madaniyatni shaxsning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmui sifatida

izohlaydilar. A.A. Bodalev insonning professional yetukligi va kommunikativ kompetentligini akmeologik rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rsatib, pedagogik faoliyat samaradorligi shaxsning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [1, 45-b.]. Olimning fikricha, pedagogik madaniyat shaxsning ijtimoiy va kasbiy munosabatlarni ongli tashkil etish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Akmeologiya fanining metodologik asoslarini ishlab chiqqan A.A. Derkach esa kasbiy yetuklikka erishishda akmeologik yondashuvning ahamiyatini alohida yoritadi. Uning ilmiy qarashlarida pedagogning professional o'sishi uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Olim pedagogik faoliyatda refleksiya, o'z-o'zini baholash va ijodiy yondashuvni kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillari sifatida ko'rsatadi [2, 61-b.]. Derkachning fikriga ko'ra, akmeologik yondashuv pedagog shaxsining maksimal imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

N.V. Kuzmina pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini tadqiq etib, pedagogik mahorat va pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlarini aniqlagan. U pedagogik kompetensiyani o'qituvchining kasbiy bilimlari, kommunikativ qobiliyati va didaktik tayyorgarligi bilan bog'laydi [3, 73-b.]. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, pedagogik madaniyatning rivojlanishi pedagogning o'z kasbiga bo'lgan qadriyatli munosabatini shakllantiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

B.G. Ananev insonni bioijtimoiy mavjudot sifatida tadqiq etib, shaxs rivojlanishining psixologik omillarini chuqur tahlil qilgan. Olimning ilmiy qarashlarida kasbiy shakllanish jarayoni insonning individual va ijtimoiy sifatleri uyg'unligi asosida rivojlanishi ko'rsatib beriladi [4, 112-b.]. Bu esa bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirishda shaxsiy fazilatlar va kasbiy motivatsiyaning muhimligini tasdiqlaydi.

V.N. Maksimova pedagogik madaniyatni pedagogning umumiy madaniyati va kasbiy faoliyati integratsiyasi sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, pedagogik madaniyatning shakllanishi ta'lim jarayonida gumanistik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiladi [5, 38-b.]. Shu jihatdan tibbiyot ta'limida pedagogik madaniyat bo'lajak mutaxassislarning bemorlar bilan muloqot qilish madaniyatini ham rivojlantiradi.

O'zbek olimlari tomonidan ham akmeologik yondashuv va pedagogik kompetentlik masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, B.B. Ma'murov bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalarini o'rgangan. Olimning ta'kidlashicha, akmeologik yondashuv pedagogning kasbiy faoliyatini innovatsion tashkil etish, kreativ tafakkurini rivojlantirish va o'zini-o'zi takomillashtirishga xizmat qiladi [6, 29-b.].

M.B. Botiraliyeva esa akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Tadqiqotda akmeologik yondashuvning shaxsning mustaqil faoliyati, refleksiv tafakkuri va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan [7, 54-b.]. Bu fikrlar bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayonida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda pedagogik madaniyatning motivatsion, aksiologik, kommunikativ va refleksiv jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar pedagogik madaniyatni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va refleksiv ta'lim muhitining samaradorligini qayd etadilar. Ayniqsa, tibbiy ta'lim tizimida pedagogik madaniyatning rivojlanishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy etikasi, empatik munosabati va kommunikativ tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik madaniyatni shakllantirish bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish masalasi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa tibbiyot oliy ta'lim muassasalari sharoitida uning tarkibiy komponentlari, mezonlari va shakllanish darajalarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatning shakllanish darajalarini aniqlash va akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning samarali mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va akmeologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa va diagnostik metodlardan foydalanildi.

Shuningdek, bo'lajak tibbiy pedagoglarning pedagogik madaniyatini baholashda motivatsion-qiymat, kognitiv-aksiologik, konativ-faoliyat hamda refleksiv-shaxsiy komponentlar asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot davomida talabalarning kasbiy motivatsiyasi, pedagogik bilimlari, kommunikativ kompetentligini aniqlash hamda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj darajasini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosini akmeologik, kompetensiyaviy, shaxsiga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy-ijodiy rivojlanishi, refleksiv faoliyati va pedagogik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning pedagogik madaniyatni mutaxassisning professional madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarixiy va madaniy pedagogik tajribani birlashtiradi, pedagogik o'zaro ta'sir doirasini tartibga soladi. Madaniy va tarixiy jihatdan u quyidagilar sifatida qaraladi: jahon pedagogik tajribasini o'z mazmuni sifatida; madaniy davrlar va unga mos keladigan pedagogik tsivilizatsiyalarning o'zgarishi sifatida; pedagogik fan va ta'lim tarixi sifatida.

Pedagogik madaniyat obyektiv (jamoat pedagogik ong holatida aks ettirilgan) va subyektiv (shaxsda takomillashtirish zaruratining shakllanish darajasini tavsiflovchi) tomonga ega. Umumiy ilmiy kontekstda "pedagogik madaniyat" ilmiy ta'rifning xilma-xil talqinlarini belgilovchi to'rtta yondashuv (falsafiy, aksiologik, faoliyatga asoslangan, shaxsiy va to'rtta asosiy jihat (ijtimoiy-pedagogik, madaniy-tarixiy, faoliyatga asoslangan, individual-shaxsiy) ajratiladi.

Falsafiy kontekstda pedagogik madaniyat jamiyatning o'zaro bog'liq xususiyati bo'lib, uning boshlang'ich nuqtasi umumiy madaniyatdir.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan pedagogik madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida, avlodlar o'rtasidagi pedagogik o'zaro ta'sir xususiyatlarining xususiyati sifatida, atrof-muhitni pedagogiklashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning tashuvchilari va yaratuvchilari o'qituvchilar, ot-onalar, jamoat vakillaridir.

Faoliyat jihatida pedagogik madaniyat hayot tarzining muhim xususiyati hisoblanadi. Individual-shaxsiy jihatdan pedagogik madaniyat shaxs, kasbiy faoliyat va muloqotning muhim xususiyatlarining namoyon bo'lishi sifatida qaraladi.

Bizning tushunchamizga ko'ra, pedagogik madaniyat - bu bo'lajak mutaxassislarning madaniy o'zini o'zi anglashi va qadriyatlarini muammosini hal qiladigan kasbiy ta'lim, kasbiy kompetensiyaning eng yuqori namoyonidir. Shaxsning pedagogik madaniyati shaxsiy xususiyatlar to'plami, faoliyatning ijtimoiy yo'nalishi, ijodiy professional fikrlash, samarali muloqot qilish qobiliyati va o'z faoliyati uchun ijtimoiy mas'uliyatning ortishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik madaniyat o'ziga xos hodisa ekanligi aniqlandi. U bo'lajak tibbiy-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va biz tomonidan ijtimoiy muhitga (talabalar, hamkasblar, patsiyentlar) samarali ta'sir ko'rsatishning integrativ xususiyati sifatida tushuniladi; u psixologik va pedagogik tayyorgarlikning ijtimoiy yo'nalishini, olingan bilimlarni tibbiy siyosatni amalga oshirishning yangi vaziyatlariga aylantirish uchun shakllangan ko'nikmalarni qamrab oladi.

Pedagogik madaniyat - bu bo'lajak tibbiy pedagogning turli xil kasbiy faoliyatida va uning muloqotida ijodiy o'zini o'zi anglash o'lchovi bo'lib, ular bemorlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatishda pedagogik qadriyatlarini yaratish, o'zlashtirish va uzatishga qaratilgan. Bu uning faoliyatining turli umumlashtirilgan tavsifi sifatida namoyon bo'ladi va nafaqat qobiliyatlarining rivojlanishini, balki tibbiy soha mutaxassis shaxsining qadriyat yo'nalishlari, pedagogik munosabatlari, stereotiplarini aniqlashni ham ta'minlaydi va nafaqat uning madaniyatini, balki u bilan pedagogik muloqotda bo'ladigan butun shaxslar guruhini ham belgilaydi.

Bo'lajak ijtimoiy xodimlarning pedagogik madaniyati tuzilishida motivatsion-qiymat, kognitiv-aksiologik, konativ-faoliyat, refleksiv-shaxsiy komponentlar aniqlandi. Motivatsion-qiymat komponenti motivatsiyani ochib beradi, yo'nalish qadriyatlarini o'z ichiga oladi va gumanistik yo'nalishga ega. Kognitiv-aksiologik komponent metodologik, nazariy va metodologik-texnologik bilimlarni qamrab oluvchi bilimlar tizimiga asoslangan. Konativ-faoliyat komponenti keng ko'lami amaliy ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga asoslangan. Refleksiv-shaxsiy komponent rivojlangan shaxsiy fazilatlariga asoslangan bo'lib, o'z faoliyatini ob'ektiv baholash qobiliyatini, ijtimoiy faoliyat samaradorligini va xavflarni baholashda professionallikni ta'minlaydi. Mezonlar spektri quyidagilarni o'z ichiga oladi: motivatsion-qadriyat sohasini rivojlantirishga yo'naltirilganlik; muvaffaqiyatga intilish; pedagogik madaniyatning mohiyati haqidagi bilimlar tizimi; psixologik va pedagogik kompetensiya; kommunikativ kompetensiya; pedagogik etika; o'zini rivojlantirish va aks ettirish qobiliyati; shaxsiy fazilatlarini shakllantirish. Muayyan komponentlarning namoyon bo'lish darajasini bashorat qiluvchi va pedagogik madaniyatni sifat jihatidan tavsiflash

imkonini beruvchi o'ziga xos komponentlar sifatida tushunadigan ko'rsatkichlar aniqlanadi. Pedagogik madaniyatning yuqori (professional jihatdan ijodiy), o'rt (professional jihatdan moslashuvchan) va past (tanqidiy) shakllanishining uch darajasi ajratilgan.

Bizning tasavvurimizda, bo'lajak tibbiy-pedagoglarning pedagogik madaniyati darajasi uning tarkibiy qismlarining uchta darajaga asoslangan shakllanish darajasi bilan tavsiflanadi: **yuqori, o'rt va past.**

Yuqori darajadagi pedagogik madaniyat o'zining pedagogik madaniyatini aniqlashga ma'lum munosabatda bo'lgan, buning uchun zarur bilimlarga ega bo'lgan, shaxsiy fazilatlarini shakllantirgan, talabalar va hamkasblar bilan pedagogik ishlarni yuqori darajada olib borishni rejalashtirgan, vaziyatga bog'liq pedagogik vazifalarni hal qilish uchun ijodiy izlanishlar olib borgan, ijodiy o'sishga doimiy ehtiyojga ega bo'lgan, o'rganish va o'z-o'zini o'qitishda yuqori natijalarga erishgan talabani tavsiflaydi. Yuqori daraja o'zining pedagogik madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishga barqaror kognitiv qiziqishning mavjudligi; ehtiyojning ichki zarurat hissi sifatida shakllanishi va pedagogik madaniyatni samarali aniqlashga qadriyat munosabati; sub'yektiv mulohaza tajribasini olish uchun kognitiv tashabbusning faol namoyon bo'lishi, faol hamkorlik; faol faoliyatga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Bu darajada pedagogik madaniyatning barcha tarkibiy qismlari va uni yanada takomillashtirish zarurati aniq ifodalangan. Bu darajani professional-ijodiy deb atash mumkin.

Pedagogik madaniyatning **o'rt darajasi** zarur fazilatlariga ega bo'lgan, kelajakdagi faoliyatni professional va psixologik-pedagogik bilimlarga asoslanib amalga oshirishni rejalashtirgan, ammo o'zini takomillashtirishga kuchli ehtiyoj sezmaydigan, dialogik muloqotni amalga oshirish qobiliyatida o'rtacha natijalarga ega bo'lgan bo'lajak tibbiy xodimni tavsiflaydi. O'rtacha daraja quyidagi xususiyatlarga ega: pedagogik madaniyatni o'rganishga qiziqishning mavjudligi, o'zini takomillashtirish zarurati va pedagogik madaniyatning tegishli darajasini shakllantirish ichki va tashqi motivlar va kelajakdagi professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga intiladigan yaxshi mutaxassis bo'lish istagi bilan belgilanadi; tashabbuskorlikning namoyon bo'lishi guruhdoshlari bilan muloqot qilishga qiziqish va kelajakdagi xodimlarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni simulyatsiya qilingan psixologik-pedagogik vaziyatlarda kuzatish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu darajani professional moslashuvchan deb atash mumkin. Bu darajada pedagogik madaniyatning ba'zi tarkibiy qismlarining namoyon bo'lishi va boshqalarining yetarlicha shakllanmaganligi sezilarli.

Pedagogik madaniyatning **past darajasi** ijtimoiy sohadagi kelajakdagi mutaxassisi tavsiflaydi, u o'zining pedagogik madaniyat darajasini oshirishni istamaydi, ta'lim jarayonida ayrim fanlardan, asosan professional fanlardan qoniqarli baho shaklida vaqtinchalik muvaffaqiyatlarga erishishga e'tibor qaratadi, shu bilan birga u ijtimoiy tayyorgarlikni ikkinchi darajali deb biladi. Shuning uchun u fanlarni o'rganishda tibbiyot mutaxassisligining boshqa talabalari bilan shaxslararo muloqotda past natijalarga erishadi, ustunlikni namoyon etadi, o'zini takomillashtirishga ehtiyoj sezmaydi.

Pedagogik madaniyatning past darajada shakllanishi quyidagi xususiyatlarga ega: o'zini takomillashtirish istagi epizodik-vaziyatga bog'liq; amaliy vaziyatlarda talaba kuzatuvchi pozitsiyasini egallashga intiladi; faollik ta'lim zarurati bilan belgilanadi (fan bo'yicha qoniqarli baho olish); pedagogik madaniyat ijtimoiy sohadagi bo'lajak mutaxassisning zaruriy professional xususiyati deb hisoblanmaydi. Bu darajada pedagogik madaniyatning individual komponentlarining yo'qligi, shuningdek, ularni shakllantirish va kasbiy o'sish zarurati yaqqol ko'rinish turibdi. Biz bu darajani bo'lajak tibbiy-pedagog uchun juda muhim deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, pedagogik madaniyat ijtimoiy voqelikning butun sohasini qamrab oladi, bunda soha mutaxassisi tarixiy va ijtimoiy, psixologik-pedagogik va boshqa jihatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda sog'liqli saqlash metodisti, tadqiqotchisi, tashkilotchisi, vrach sifatida ishlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va integrativ xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik madaniyat nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar yig'indisi, balki shaxsning pedagogik faoliyatga bo'lgan qadriyatli munosabati, kommunikativ salohiyati, refleksiv qobiliyati hamda o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, tibbiyot ta'limi tizimida pedagogik madaniyatning shakllanishi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi va insonparvarlik fazilatlarini rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni faqat bilim egallashga emas, balki o'z ustida ishlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va kasbiy jihatdan muntazam takomillashtirishga yo'naltiradi. Bu esa bo'lajak tibbiy pedagoglarda kasbiy

mas'uliyat, pedagogik tafakkur va refleksiv madaniyatning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Akmeologik yondashuvning asosiy ustunliklaridan biri shundaki, u talabani individual imkoniyatlarini ochib berish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda professional yetuklikka erishishga xizmat qiladi.

Pedagogik madaniyatning motivatsion-qiymat komponenti bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki motivatsiyasi va qadriyatli munosabatini ifodalaydi. Tadqiqot davomida yuqori darajadagi talabalar pedagogik faoliyatni nafaqat kasb, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat sifatida anglashlari kuzatildi. Ular ta'lim jarayonida faol ishtirok etib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda boyitishga intilishlari bilan ajralib turadi. O'rtacha darajadagi talabalar esa kasbiy faoliyatga qiziqish bildirgan bo'lsalar-da, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj doimiy xarakterga ega emasligi bilan tavsiflandi. Past darajadagi talabalarda esa pedagogik faoliyatga nisbatan sust motivatsiya, kasbiy o'sishga befarqlik hamda pedagogik madaniyatning mohiyatini yetarlicha anglamaslik holatlari kuzatildi.

Kognitiv-aksiologik komponentni tahlil qilish natijasida pedagogik madaniyatning shakllanishi pedagogik, psixologik va metodik bilimlar tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi aniqlandi. Yuqori darajadagi talabalar pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qila olish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turdi. Shu bilan birga, ular pedagogik etika va kasbiy qadriyatlarga amal qilishda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdilar. O'rtacha va past darajadagi talabalarda esa bilimlarning fragmentar xarakterga egaligi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda qiyinchiliklar mavjudligi kuzatildi.

Konativ-faoliyat komponenti bo'lajak tibbiy pedagoglarning amaliy faoliyatga tayyorgarligi, kommunikativ kompetentligi va pedagogik hamkorlikni tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqot jarayonida yuqori darajadagi talabalar ta'lim jarayonida tashabbuskorlik ko'rsatishi, jamoada ishlash va muloqot o'rnatishda faol bo'lishi bilan ajralib turdi. Ular pedagogik vaziyatlarda ijodiy yondashuvni namoyon etib, bemorlar va talabalar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishga intildilar. Past darajadagi talabalar esa aksincha, kommunikativ qiyinchiliklarga duch kelishi, pedagogik vaziyatlarda passiv pozitsiyani egallashi va amaliy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilishda qiynalishi bilan tavsiflandi.

Refleksiv-shaxsiy komponentni tahlil qilish natijasida pedagogik madaniyatning shakllanishida o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy rivojlanishga intilish muhim omil ekanligi aniqlandi. Yuqori darajadagi talabalar o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va keyingi faoliyatini takomillashtirishga intilishlari bilan ajralib turdi. Bu esa ularda refleksiv tafakkur va professional o'sish ehtiyojining shakllanganligini ko'rsatadi. Past darajadagi talabalar esa o'z faoliyatini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor bermasligi, o'zini rivojlantirishga ehtiyoj sezmasligi bilan xarakterlandi.

Tadqiqot davomida pedagogik madaniyatni rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, treninglar, refleksiv topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi aniqlandi. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, kasbiy muloqotga oid treninglar va mustaqil refleksiv tahlil bo'lajak tibbiy pedagoglarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti talabalarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida pedagogik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlar va metodik tizimlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Chunki bo'lajak tibbiy pedagogning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat uning tibbiy bilimlariga, balki pedagogik madaniyati, kommunikativ kompetentligi va insonparvarlik fazilatlariga ham bevositida bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonida akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish bo'lajak mutaxassislarining professional-ijodiy salohiyatini oshirishning muhim omili sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Biz tibbiy-pedagogning pedagogik madaniyatining tarkibiy qismlari va mezonlarini ta'kidlaganimizda, uning barcha mazmuni ma'lum bir tarzda yaratilganligidan kelib chiqqanimizni ta'kidlaymiz. Ya'ni, u insonning o'zi qanday tashkil etilganiga o'xshash tarzda tashkil etilgan, chunki madaniyat inson hayotining bir usuli hisoblanadi. Shuning uchun, har qanday biosotsial tizim singari, inson ham yaxlit, ochiq va o'zaro ta'sir qiluvchi quyi tizimlar (komponentlar) to'plamini va ularning barqaror aloqalarini o'z ichiga oladi. Shaxs, madaniyat va faoliyatning birligi tamoyiliga asoslanib, biz aynan shu komponentlarni ta'kidladik, ularning rivojlanishi orqali pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoni va natijasi eng aniq ko'rinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik

kompetentligi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik madaniyatning motivatsion-qiyamat, kognitiv-aksiologik, konativ-faoliyat hamda reflektiv-shaxsiy komponentlari o'zaro uzviy bog'langan holda bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashi aniqlandi. Mazkur komponentlarning rivojlanish darajasi talabalarni professional-ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida pedagogik madaniyatning yuqori, o'rta va past darajalari tavsiflanib, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Yuqori darajadagi pedagogik madaniyat bo'lajak tibbiy pedagogning kasbiy faoliyatga ongli yondashuvi, pedagogik qadriyatlariga sodiqligi, mustaqil fikrlashi va o'zini muntazam rivojlantirishga intilishi bilan xarakterlanishi aniqlandi. O'rta darajada pedagogik madaniyatning ayrim komponentlari shakllangan bo'lsa-da, kasbiy refleksiya va o'zini takomillashtirishga ehtiyoj yetarlicha barqaror emasligi kuzatildi. Past darajadagi pedagogik madaniyat esa kasbiy motivatsiyaning sustligi, kommunikativ qiyinchiliklar va pedagogik faoliyatga nisbatan yetarli qiziqishning shakllanmaganligi bilan tavsiflandi. Shuningdek, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti bo'lajak tibbiy pedagoglarning kasbiy-ijodiy rivojlanishi, kommunikativ kompetentligini oshirish va reflektiv faoliyatini

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019-y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori // O'zbekiston
3. Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda. 20.04.2017 y.
4. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: Ped.f.d. ...dis. -T.: Fan va texnologiyalar, 2017. - 5 b.
5. M.B.Botiraliyeva. "Akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash tayanchi kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlaril. 2024-yil 15-may.
6. Bodalev A.A. Psixologiya o' professionalizme lichnosti. – Moskva: Institut prakticheskoy psixologii, 2001. – 256 s.
7. Derkach A.A., Zazykin V.G. Akmeologiya: uchebnoye posobiye. – Sankt-Peterburg: Piter, 2003. – 256 s.

shakllantirishda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Interfaol metodlar, pedagogik treninglar, muammoli vaziyatlar tahlili hamda reflektiv topshiriqlar pedagogik madaniyatning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida pedagogik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy tibbiy pedagog nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki pedagogik tafakkurga ega, kommunikativ jihatdan yetuk, insonparvar va kasbiy jihatdan raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishi zarur. Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda bo'lajak tibbiy pedagoglarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari, raqamli ta'lim vositalari hamda xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiyalash masalalarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa tibbiyot ta'limi sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish hamda yuqori malakali pedagogik va tibbiy kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

8. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990. – 119 s.
9. Anan'ev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001. – 288 s.
10. Rean A.A. Psixologiya lichnosti. Sotsializatsiya, povedeniye, obsheniye. – Moskva: AST, 2015. – 416 s.
11. Maksimova V.N. Akmeologiya: novoye kachestvo obrazovaniya. – Moskva: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2002. – 272 s.
12. Xozainov G.I. Pedagogicheskaya kultura uchitelya. – Kazan: Izdatelstvo Kazanskogo universiteta, 1994. – 184 s.
13. Kuxarev N.V. Professionalnaya kultura pedagoga. – Minsk: Universitetskoye, 2000. – 198 s.
14. Tolstov S.N. Akmeologicheskoye osnovi professionalnogo razvitiya lichnosti. – Moskva: Nauka, 2005. – 224 s.
15. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 320 b.
16. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.